



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich

Ishonch gazetasi taxiriyati Bosh hisobchisi
E-mail: isomiddinsuunov1@gmail.com
Orcid: 0009-0006-2459-3754

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sug'urta bozori investisiya ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Xorijiy sug'urta bozorlari investisiya salohiyati va iqtisodiy ahamiyati o'rganilgan. O'zbekiston sug'urta bozori investisiya yo'nalishlarini takomillashtiriga oid ilmiy amaliy taklif va tavsiyalari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, depozitlar, qimmatli-qog'ozlar, ichki investisiya, moliyaviy barqarorlik, sug'urta zaxira fondlari, sug'urtada investisiya faoliyatini huquqiy asoslari, sug'urtada investisiya faoliyatini xorij tajribasi.

Abstract: The article analyzes investment indicators of the insurance market of Uzbekistan. The investment potential and economic significance of foreign insurance markets are studied. Scientific and practical proposals and recommendations for improving investment directions of the insurance market of Uzbekistan are developed.

Keywords: Insurance market, deposits, securities, domestic investments, financial stability, insurance reserve funds, legal basis for investment activities in insurance, foreign experience of investment activities in insurance.

Абстрактный: В статье анализируются инвестиционные показатели страхового рынка Узбекистана. Изучаются инвестиционный потенциал и экономическое значение зарубежных страховых рынков. Разрабатываются научно-практические предложения и рекомендации по совершенствованию инвестиционных направлений страхового рынка Узбекистана

Ключевые слова: Страховой рынок, депозиты, ценные бумаги, внутренние инвестиции, финансовая устойчивость, страховые резервные фонды, правовые основы инвестиционной деятельности в страховании, зарубежный опыт инвестиционной деятельности в страховании.

Introduction (Kirish/Vvedenie).

Sug'urta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy barqarorlik va investisiya muhitini ta'minlovchi muhim institutlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda sug'urta kompaniyalarining soni, ularning moliyaviy salohiyati va investisiya faoliyati keskin o'smoqda.

Sug'urta tashkilotlari nafaqat sug'urta xizmatlari ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, balki o'z mablag'larini turli moliyaviy instrumentlarga yo'naltirish orqali iqtisodiyotning real sektorini ham qo'llab-quvvatlaydi. Bu holat mamlakatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ish o'rinlari yaratish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashda katta ahamiyatga ega. Mavzuning dolzarbligi shundaki, sug'urta bozorining investisiya faoliyati tarkibida diversifikatsiya darajasi, moliyaviy instrumentlardan foydalanish samaradorligi va xalqaro standartlarga yaqinlashish masalalari hamisha kun tartibida turibdi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sug'urta bozoridagi investisiya ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ularning dinamikasi va tendensiyalarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Maqolaning maqsadi 2024-2025 yillarda sug'urta kompaniyalari investisiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ularning tarkibiy o'zgarishlarini ko'rsatish va kelgusidagi rivojlanish istiqbollariga doir takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Maqolada statistik tahlil, qiyosiy usullar va xalqaro amaliyot bilan taqqoslash orqali ilmiy asoslangan xulosalar tayyorlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Анализ литературы).

Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya oqimlarini tahlili va uning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Maqolani yozish davomida MDH mamlakatlari olim va mutaxassislaridan O.N.Kozlova, Ye.A.Kalacheva,

I.V. Kalachevalarning [1], shuningdek xorijiy olim va mutaxassislardan F.Moshirian [2] ning bu boradagi ilmiy ishlarini, O'zbekistonlik olimlardan Q.Qo'ldoshev [3], X.Shennayev [4], va I.Abduraxmonov [5] larning ilmiy maqollari tahlil qilindi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).


Maqolamizni ilmiy jihatdan keng darajada tahlil qilishda sifat yondashuvidan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik va qiyosiy tahlil usullaridan ham samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis/Анализ).

Sug'urta bozori moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat aholi va xo'jalik sub'yektlarini turli xavf-xatarlardan himoya qiladi, balki moliyaviy resurslarni jamg'arish va ularni samarali investitsiyalarga yo'naltirish orqali milliy iqtisodiyot rivojiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda sug'urta kompaniyalari tomonidan to'plangan fondlar ichki investisiya manbai sifatida keng qo'llaniladi. Bu esa iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma yangilanishi va ish o'rinlari yaratilishiga turtki bo'ladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sug'urta kompaniyalari aktivlari yalpi ichki mahsulotning (YAIM) katta qismini tashkil qiladi. Masalan, Germaniyada 2023 yil holatiga ko'ra, sug'urta sektori aktivlari 2,6 trln yevroni tashkil etgan. Ushbu mablag'larning 70 foizdan ortig'i korporativ obligatsiyalar, davlat qimmatli qag'ozlari va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan. Bu amaliyot mamlakatda transport infratuzilmasi, energetika va raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Fransiyada esa sug'urta fondlari milliy pensiya tizimini moliyalashtirishda ham faol ishtirok etadi. Sug'urta kompaniyalari pensiya jamg'armalari bilan hamkorlikda uzoq muddatli investisiya strategiyasini amalga oshirib, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.



1-diagramma. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta aktivlarining YAIMga nisbati 2024 yil [8].

AQSHda sug'urta kompaniyalari moliyaviy bozorning eng yirik institusional investorlaridan hisoblanadi. 2024 yil ma'lumotlariga ko'ra, ularning umumiy aktivlari 12 trln dollardan oshgan. Bu mablag'larning katta qismi davlat obligatsiyalari, ipoteka qimmatli qog'ozlari va xususiy sektor aksiyalariga sarflanadi. Shu bilan birga, AQSH sug'urta kompaniyalari venchur kapital va innovation startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali yangi texnologiyalar rivojiga hissa qo'shmoqda.

Yaponiya sug'urta bozori ham yirik moliyaviy salohiyatga ega. Bu yerda sug'urta kompaniyalari aktivlari milliy YAIMning qariyb 90 foizini tashkil qiladi. Ular asosan infratuzilma, innovatsiya va yashil energetika sohalari sarmoya kiritadi. Masalan, «Nippon Life Insurance» kabi yirik kompaniyalar milliy yo'l qurilishi, atom energetikasi va qayta tiklanuvchi manbalardagi loyihalarni moliyalashtirib kelmoqda. Yaponiya tajribasining muhim jihati sug'urta kompaniyalari davlat bilan uzviy hamkorlikda ish yuritadi. Bu hamkorlik orqali iqtisodiy xavfsizlik va uzoq muddatli barqarorlik ta'minlanadi. Shu bilan birga, Yaponiya moliya bozorida sug'urta kompaniyalari bank sektori bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat yuritadi.

Xitoy so'nggi 20 yil ichida sug'urta bozorini jadal rivojlantirdi. 2025 yilga kelib, mamlakatda sug'urta kompaniyalari aktivlari 30 trln yuanga (takriban 4,2 trln dollar) yetdi. Xitoyda sug'urta fondlari asosan davlat strategiyasiga mos ravishda yo'naltiriladi. Masalan, «Belt and Road Initiative» (Bir kamar - bir yo'l) dasturi doirasidagi yirik infratuzilma loyihalari sug'urta fondlari orqali moliyalashtiriladi. Bu nafaqat ichki investisiyani kuchaytiradi, balki tashqi iqtisodiy aloqalarni ham mustahkamlaydi.


2024 yil yanvar-iyun va 2025 yil yanvar-iyun davrlarida O'zbekiston sug'urta tashkilotlarining investisiya tarkibi taqqoslangan bo'lib, jami aktivlar mos ravishda 6,1 trln so'mdan 8,3 trln so'mga o'sgan, bu esa yillik o'sish sur'ati taxminan 36% atrofida ekanini ko'rsatadi.

2024 yilning birinchi yarmida sug'urta kompaniyalari aktivlari asosan depozitlarga yo'naltirilgan (66%), qolgan qismi qimmatli qog'ozlar (21%), ko'chmas mulk (10%) va juda kichik ulushdagi (1%) boshqa investisiya yo'nalishlariga sarflangan. 2025 yilda esa depozitlar ulushi 61% gacha pasaygan bo'lsa-da, qimmatli qog'ozlardagi investisiyalar 17% atrofida saqlangan, ko'chmas mulkka yo'naltirilgan sarmoya esa 19%gacha ko'tarilgan. Bu ko'rsatkich sug'urta bozorining diversifikatsiya sari qadam tashlayotganini anglatadi.

2024 yil yanvar-iyun va 2025 yil yanvar-iyun davrlarida O'zbekiston sug'urta tashkilotlarining investisiya tarkibi taqqoslangan bo'lib, jami aktivlar mos ravishda 6,1 trln so'mdan 8,3 trln so'mga o'sgan, bu esa yillik o'sish sur'ati taxminan 36% atrofida ekanini ko'rsatadi.

2024 yilning birinchi yarmida sug'urta kompaniyalari aktivlari asosan depozitlarga yo'naltirilgan (66%), qolgan qismi qimmatli qog'ozlar

(21%), ko'chmas mulk (10%) va juda kichik ulushdagi (1%) boshqa investisiya yo'nalishlariga sarflangan. 2025 yilda esa depozitlar ulushi 61% gacha pasaygan bo'lsa-da, qimmatli qog'ozlardagi investisiyalar 17% atrofida saqlangan, ko'chmas mulkka yo'naltirilgan sarmoya esa 19%gacha ko'tarilgan. Bu ko'rsatkich sug'urta bozorining diversifikatsiya sari qadam tashlayotganini anglatadi.



2-diagramma. O'zbekiston sug'urta bozori investitsiya ko'rsatkichlari 2024-2025 yillar[9].

2024 yilda depozitlar sug'urta aktivlarining asosiy qismini (66%) tashkil etgan. 2025 yilda bu ko'rsatkich 61% gacha kamaygan bo'lsa-da, hali ham asosiy manba bo'lib qolmoqda. Depozitlar tarkibining yuqori ulushi sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarni xavfsiz va likvid yo'nalishlarga joylashtirishga intilayotganini anglatadi. Biroq, depozitlarga ortiqcha bog'lanib qolish kapital bozorini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Shuning uchun 2025 yilda bu ko'rsatkichning biroz pasayishi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi.

Qimmatli qog'ozlar ulushi 2024 yilda 21% bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda 17% gacha pasaygan. Bu sug'urta kompaniyalari portfelida fond bozoriga yo'naltirilgan sarmoyalar hali ham yetarlicha kuchli emasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investisiya xavflarini diversifikatsiya qilish maqsadida qimmatli qog'ozlarga sarmoya ko'paytirilishi zarur. Rivojlangan mamlakatlarda (Germaniya, AQSH, Yaponiya) sug'urta kompaniyalari aktivlarining katta qismi davlat obligatsiyalari va korporativ qimmatli qog'ozlarda saqlanishi buning samarali ekanini isbotlab bermoqda.

Ko'chmas mulkka yo'naltirilgan sarmoya 2024 yilda 10% bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda 19% gacha ko'tarilgan. Bu ikki baravarga yaqin o'sish ko'rsatkichi sug'urta tashkilotlari uzoq muddatli aktivlarga yo'nalishini anglatadi. Ko'chmas mulk investisiyalari inflyatsiya xavfini kamaytirishi, barqaror passiv daromad olib kelishi va sug'urta kompaniyalari uchun uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

Diagrammada ustav fondlariga yo'naltirilgan sarmoya ulushi ham 1% darajasida ekanligi ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkich juda kichik bo'lsa-da, sug'urta kompaniyalari sanoat va tijorat tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Agar bu yo'nalishni strategik ravishda rivojlantirish mumkin bo'lsa, milliy iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ortishi mumkin.

«Boshqa investitsiyalar» yo'nalishi 2024 yilda 1% bo'lgan, 2025 yilda esa 2%ga ko'tarilgan. Bu hali kichik ulush hisoblansa-da, sug'urta kompaniyalari investisiya portfelini diversifikatsiya qilishga qadam tashlayotganini anglatadi. Bu yo'nalishga venchur kapital, innovation startaplari va yashil energetika loyihalarini kiritish mumkin.

O'zbekiston sug'urta bozori jami investitsiya aktivlari: 2024 yilda 6,1 trln so'mdan 2025 yilda 8,3 trln so'mga o'sish (+36%).

Depozitlar: 66% → 61% (pasayish).

Qimmatli qog'ozlar: 21% → 17% (pasayish).

Ko'chmas mulk: 10% → 19% (oshish).

Boshqa investitsiyalar: 1% → 2% (oshish).

Bu raqamlar sug'urta bozorida diversifikatsiya jarayoni borishini ko'rsatadi. Agar 2024 yilda sug'urta kompaniyalari asosan bank tizimiga bog'liq bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda ularning ko'proq ko'chmas mulk va alternativ yo'nalishlarga e'tibor qarata boshlagani kuzatiladi.

O'zbekiston sug'urta bozori investitsiya oqimlari harakatidan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- O'zbekiston sug'urta bozorida aktivlar hajmi ortib bormoqda va ichki investitsiya imkoniyatlari kengaymoqda.

- depozitlar hali ham asosiy manba bo'lib qolmoqda, ammo ularning ulushi pasayib, diversifikatsiya jarayoni boshlangan.

- ko'chmas mulkka sarmoya sezilarli o'sib, uzoq muddatli barqarorlikka qaratilgan strategiya kuchaymoqda.

- qimmatli qog'ozlar bozori ulushining kamayishi e'tibor talab qiladi - milliy kapital bozorini sug'urta sektori orqali qo'llab-quvvatlash muhim.

- boshqa investitsiya yo'nalishlarining ulushi kichik bo'lsa-da, ularning o'sishi ijobiy tendensiya hisoblanadi.

O'zbekiston sug'urta bozori investitsiya salohiyatini kengaytirish maqsadida sug'urta kompaniyalari portfelini yanada diversifikatsiya qilish va kapital bozoriga sarmoya kiritishni kuchaytirishi kerak.

Ko'chmas mulk va yashil energetika kabi uzoq muddatli aktivlar ulushi ko'paytirilishi lozim.

Davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va sug'urta kompaniyalari ishtirokini qo'llab-quvvatlash muhim.

Xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta aktivlarini diversifikatsiya qilish va kapital bozorini qo'llab-quvvatlash zarur. Hozirgi paytda sug'urta kompaniyalari investitsiya oqimlarini asosan depozitlarga yo'naltirmoqda. Bu xavfsiz bo'lsa-da, iqtisodiy rivojlanish uchun yetarli samara bermaydi. Shuning uchun milliy va korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiya ulushini oshirish uzoqmuddatli obligatsiyalar va infratuzilma obligatsiyalar bozorini rivojlantirish hamda davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni ta'minlash zarur.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi (Germaniya, Yaponiya, Xitoy) shuni ko'rsatadiki, sug'urta fondlari yirik infratuzilma va ijtimoiy

loyihalarni moliyalashtirishda muhim manba hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida yo'llar, energetika, logistika va raqamli iqtisodiyot loyihalarig sug'urta fondlarini jalb qilish, shuningdek davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari orqali sug'urta kompaniyalarini infratuzilma sarmoyasiga kiritish, pensiya tizimi va ijtimoiy fondlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda yashil energetika va innovatsiya sohasiga sarmoya yo'naltirish zarur.

Sug'urta fondlari uzoq muddatli va barqaror investitsiya manbai hisoblanadi. Shu sababli ularni:

yashil energetika (solar, shamol, gidro) loyihalariga;

iInnovation startaplar va raqamli texnologiyalarga;

venchur kapital va «Zero Risk» dasturlari doirasida IT outsourcing kompaniyalariga sarmoya sifatida yo'naltirish mumkin.

Bu nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki iqtisodiyotning innovativ salohiyatini ham kuchaytiradi.

Sug'urta bozorida investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun huquqiy va institusional asoslar mustahkamlanishi lozim:

- investitsiya faoliyati bo'yicha maxsus normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

- sug'urta kompaniyalari uchun "investitsiya limitlari" va "xavf boshqaruvi standartlarini" joriy etish ya'ni (Solvency II talablariga yaqinlashtirish), Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan sug'urta kompaniyalari o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish hamda sug'urta bozorida moliyaviy savodxonlik va ilg'or boshqaruv texnologiyalarini joriy etish kerak.

Xulosa qilib aytganda, ushbu takliflar amalga oshirilsa, sug'urta fondlari O'zbekiston iqtisodiyotida faol institusional investor vazifasini bajarib, milliy investitsiya siyosatini qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizmga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Козлова О. Н., Калачева Е. А., Калачева И. В. Инвестиционная деятельность страховых организаций: возможности, перспективы и направления развития //Финансы и кредит. – 2018. – Т. 24. – №. 9 (777). – С. 2056-2074.
2. Moshirian F. Foreign direct investment in insurance services in the United States //Journal of Multinational Financial Management. – 1997. – Т. 7. – №. 2. – С. 159-173..
3. Кўлдошев, Қамариддин. "ЎЗБЕКИСТОН СУҒУРТА БОЗОРИ: РИВОЖЛАНИШ ЙўНАЛИШЛАРИ ВА МУАММОЛАР." Страховой рынок Узбекистана 1.4 (2023): 1-4.
4. Шеннаев, Хужаёр. "Годы независимости–этапы развития страховой деятельности в Узбекистане." Экономика и инновационные технологии 5 (2021): 321-335.
5. Абдурахмонов, Ильес. "СТРАХОВОЙ РЫНОК: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЕ." Экономическое развитие и анализ 2.4 (2024): 309-319.
6. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining sug'urta bozori hisobati. <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im5>.
7. O'zbekiston Respublikasi Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investision faoliyati to'g'risidagi nizom. <https://lex.uz/uz/docs/1499707>.
8. <https://www.iais.org/uploads/2024/12/Global-Insurance-Market-Report-2024.pdf>
9. <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im>.